

**CHET TILINI O`QITISHDA OLIY TA`LIMGACHA BO`LGAN DAVRNING
PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

Sindorov Rajapboy Ulugbek o`g`li
SamDChTI tayanch doktoranti
rajapboysindorov77@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada metodning o`ziga xos xususiyatlari, dars jarayonida interfaol o`yinlarning roli, butun guruhning ishtiroki, o`yinlarning samarali olib borilishi, jamoa bo`lib ishlash, chet tilini kichik yoshdagi o`quvchularda shakllantirish, o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi munosabatlar, muloqotning ko`pqirali va ta`sirchan bo`lishi.

Kalit so`zlar: Didaktik so`z o`yinlari, o`quvchilar ongli faoliyatini faollashuvi, xulosa chiqarish qobiliyati, inson ruhiyati, muloqot jarayoni.

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕРИОДА ДО
ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ**

Синдорова Раджапбой Улугбекович
базовый докторант СамГИИЯ
rajapboysindorov77@gmail.com

Аннотация:

В данной статье рассмотрены особенности метода, роль интерактивных игр в ходе урока, участие всей группы, эффективное проведение игр, работа в команде, формирование иностранного языка у младших школьников, отношения между учителем и учеником, общение должно быть многогранным и эффективным.

Ключевые слова: дидактические словесные игры, активизация сознательной деятельности учащихся, умение делать выводы, психика человека, процесс общения.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE PERIOD
BEFORE HIGHER EDUCATION IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE**

Sindorov Rajapboy
PhD student of SamSIFL
rajapboysindorov77@gmail.com

Abstract:

In this article, the specific features of the method, the role of interactive games in the course of the lesson, the participation of the whole group, the effective conduct of games, teamwork, the formation of a foreign language in young students, the teacher and the student relationships between, communication to be multifaceted and effective.

Key words: Didactic word games, activation of students' conscious activity, ability to draw conclusions, human psyche, communication process.

Umumiy ta'lim maktablari sharoitida o'quv darsliklarida va qo'llanmalarida ifodalangan ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda muloqotning uch asosiy va muhim vazifasini: ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini alohida takidlab o'tish joiz.¹ Ushbu vazifalarni bajarishda didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Darsda didaktik so'z o'yinlarini tashkil etilishi va uning muvaffaqiyatli o'tkazilishi o'quvchilar ongli faoliyatini faollashuvi, bilimlarni puxta egallash vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi, shuningdek o'quvchilarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi, ularning jamoa bo'lib ishlash, do'stona munosabatda bo'lish, diqqat etiborni jamlash, xotirani mustahkamlash xususiyatlari shakllantiradi va rivojlantiradi. Dars jarayonida didaktik o'yinlar, o'quvchilarning chet tilidagi nutqni eshitish, undan xulosa chiqarish qobiliyatini tarbiyalaydi, o'quvchilarning nutq madaniyatini oshradi.

Amerikalik psixolog D. Midning ta'kidlashicha, inson bolaligidan ichki "men"iga tayanib ish ko'ra boshlaydi. Mazkur "men" tushunchasining darajasini bolaning turli o'yinlardagi qiziqishini aniqlashimiz mumkin.² Tibbiyot va psixologiyada "o'yinterapiya" tushunchasi mavjud. Bu tushunchaning mohiyati shundan iboratki, dunyoning hech qanday asbob-uskunasi aniqlanib bera olmaydigan inson ruhiyatini o'yinlar orqali ko'rish imkoniyati mavjud. Chet tilini o'rgatishda o'yin quyidagi uslubiy vazifalarni bajaradi:

- bolalarni muloqotga kirishish jarayoniga ruhiy tayyorlaydi;
- muloqotning ko'pqirali va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi;
- muloqot jarayonida to'g'ri so'z qo'llashga o'rgatadi;
- bolaning epcil va chaqqon bo'lib o'sishini ta'minlaydi.³

Dars jarayonida interfaol o'yinlarning roli juda muhim. Masalan, darsni interfaol usulda tashkil etish, birinchidan, butun guruhning ishtirokini ta'minlasa, ikkinchi tomondan raqobatni keltirib chiqaradi. Raqobat maqsad sari intilishni taqozo etadi. Darsda turli o'yinlardan foydalanish yangi mavzuni bir necha bor takrorlash imkonini beradi. Ammo ayrim olimlar

¹ Maktablarнинг бошланғич синфларида чет тилидан амалий машғулотларнинг аҳамияти// Замоновий лингвистик тадқиқотлар ва чет тилларни ўқитиш дидактикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2017. – Б.282-283

² O'quv metodik majmua. Library.ziyonet.uz.

³ Daminov N.K. Chet tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati// Замоновий тилшунослик ва лингводидактиканинг коммуникатив аспекти. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2016. –Б. 210-211

darsda o'yinning roli haqida ijobiy fikr bildirmaydilar. Ya'ni o'yin orqali darsda ko'p vaqt yo'qotiladi va yana bir kamchiligi barcha o'quvchi birdek qabul qilmaydi. Vaholanki, har qanday sharoitda ham barcha o'quvchiga birdek darsni, yangi mavzuni to'lig'icha yetkazib berishning ilojisi yo'q. Dars davomidagi o'yinning asosiy ahmiyati bolalarni zeriktirmaslik va o'zlari bilmagan holda yangi tushunchani miyasiga singdirishdan iborat. O'yinlarning samarali olib borilishi albatta o'qituvchiga bog'liq. Shu o'rinda quyidagi fikrga yuzlanamiz: "If a teacher isn't organized and truly ready to teach, their students pick up on it straight away: long pauses and hand-scratching slow down the pace of the class and undermine the student's confidence in the learning process."⁴ Ya'ni o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qilmasa, dars davomida talabalar pauzalarga duch keladigan bo'lsa, ularning bilim olish saviyasi tushib ketadi va darsga bo'lgan ishonchi yo'qoladi. Bu holatni o'quvchilar misolida olishimiz ham mumkin. Ularda ishonch hali shakllanmagan bo'lsada, o'qituvchining faoliyatidagi nuqsonlarni ko'radi va fanning muhimlik darajasini to'liq his qila olmaydi. Keyin esa o'quvchi bu fandan soviy boshlaydi. Ayniqsa, chet tilini o'qitish jarayonidagi bunday nuqsonlar keyinchalik katta qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. O'quvchi bir mavzuni tushunmay qolsa, keyingilarini o'zlashtirishi ancha mushkul kechadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'proq takrorlash mashqlari olib boriladi. Chunki ularda birdaniga anglash xususiyati sekin bo'ladi.

Xalqaro pedagogika va maxsus fanlar akademigi N.N Azizxo'jayeva darslarda o'yinli texnologiyalardan foydalanishni yuqori baholab, quyidagilarni ta'kidlaydi: "O'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, o'zini - o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi".⁵ Odatda o'yinlar o'z qoidalariga, belgilangan vaqtga va raqobatchilik xususiyatiga ega. O'quvchilar o'z jamoasini g'olib bo'lishiga harakat qilib, o'z qobiliyatlarini to'lig'icha namoyon qiladi.

Hozirgi davr ta'lim tizimida har qanday fanni o'qitishda interfaol usullardan keng foydalanish asosiy ehtiyojga aylanmoqda. Interfaol atamasi dars davomida amalga oshadigan muloqot nafaqat o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida, shuningdek o'quvchi- o'quvchi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ham bo'lib o'tishini bildiradi. Noan'anaviy dars o'tish aynan shuni taqozo etmoqda. Bunday muloqot o'quvchilarda o'z kuchiga ishonch, motivatsiya va o'zini erkin namoyon qilish sifatlarini shakllantiradi. Interfaol metodlar mashg'ulot jarayonida bir nechta maqsadni birlashtiradi, ammo bu metodlar bitta mezonga tayanadi: agar o'rganilayotgan material amalda qo'llanilmas ekan, kutilayotgan samaraga erishib bo'lmaydi.⁶ Chet tilini interfaol usulda o'qitish o'qituvchidan dars jarayonini rang-barang mashg'ulotlar bilan tashkil

⁴ Mukhammadiyeva Sh. A. Lesson planning for beginners: 5 tactics for excellent preparation// *Замонавий лингвистик тадқиқотлар ва чет тилларни ўқитиш дидактикаси*. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2017. – Б.243-244

⁵ Azizxo'jayev N.N.. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: O'zYU adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – B.91

⁶ Sattorova F. *Ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari// Замонавий тилшунослик ва лингводидактиканинг коммуникатив аспектилари*. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2016. –Б.226-227

qilishni nazarda tutadi, shunda o'quvchi chet tilida so'zlashishni o'qib, o'rganish natijasida emas, aksincha uni amalda qo'llash orqali egallaydi. Bunday metod turida o'qituvchi yordamchi, boshqaruvchi, kuzatuvchi, axborot manbayi, tadqiqotchi rollarini bajaradi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni Okspourd R. dekorativ matoga o'xshatadi. Unga ko'ra, iplar o'zaro mos kelishi matoning chiroyli va mustahkamligini taminlaganidek, o'qituvchining o'qitish usuli o'quvchiga mos tushsagina ajoyib natija kutilishini aytib o'tgan.⁷ Hozirda o'qituvchidan qilinayotgan asosiy talab ham aynan o'quvchining qabul qilish imkoniyatini bilgan holda dars berishdir.

Chet tilini kichik yoshdagi o'quvchularda shakllantirish jarayonidagi olimlarning qarashlari asosida shunday xulosani keltirishimiz mumkinki, dars davomidagi o'yinlar va qiziqarli jarayonlar bolalarda o'zlari bilmagan holda leksik va grammatik ko'nikmalar paydo bo'lishiga va rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan ilg'or tajriba va zamonaviy bilimlar egasi bo'lishini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мактабларнинг бошланғич синфларида чет тилидан амалий машғулотларнинг аҳамияти// Замонавий лингвистик тадқиқотлар ва чет тилларни ўқитиш дидктикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2017. – Б.282-283
2. O'quv metodik majmua. Library.ziyonet.uz.
3. Daminov N.K. Chet tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati// Замонавий тилшунослик ва лингводидактиканинг коммуникатив аспекти. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2016. –Б. 210-211
4. Mukhammadiyeva Sh. A. Lesson planning for beginners: 5 tactics for excellent preparation// Замонавий лингвистик тадқиқотлар ва чет тилларни ўқитиш дидктикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2017. – Б.243-244
5. Azizxo'jayev N.N.. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent: O'zYU adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – B.91
6. Indiaminov, R., & Yusupov, N. (2021, November). Mathematical Modeling of Magnetoelastic Vibrations of Current Conductive Shells in the Non Stationary Magnetic Field. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
7. Indiaminov, R., Narkulov, A., Yusupov, N., Rustamov, S., Butaev, R., Kholjigitov, S., & Isayev, N. (2022, June). Nonlinear oscillations of a current-carrying shell in magnetic field. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2467, No. 1, p. 020013). AIP Publishing LLC.

⁷ Sattorova F. E. Ingliz tilini o'qitishda til ko'nikmalari integratsiyasidan foydalanish - muloqotga kirishaolish qobliyatining asosi // Замонавий лингвистик тадқиқотлар ва чет тилларни ўқитиш дидктикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2017. – Б.271-272

8. Indiaminov, R., Narkulov, A., Yusupov, N., Zarpullaev, U., Abdullaev, A., & Rustamov, S. (2022, June). Nonlinear strain of a current-conducting annular plate in a magnetic field. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2467, No. 1, p. 060026). AIP Publishing LLC.
9. Yusupov, N. (2022). LEGAL REGULATION OF WORKING HOURS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Science and Innovation, 1(8), 320-326.
10. Yusupov, N., Mardanov, H., & Abdunazarov, O. (2022). TECHNOLOGICAL QUALITY INDICATORS OF GRAIN OF STUDIED VARIETIES AND LINES AT THE COMPETITIVE VARIETY TEST NURSERY. Science and Innovation, 1(7), 604-607.
11. Yusupov, N. (2022). ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ РЕЖИМА РАБОЧЕГО ВРЕМЕНИ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Science and innovation, 1(C8), 320-326.
12. Yusupov, N., Mardanov, H., & Abdunazarov, O. (2022). РАҚОБАТЛИ НАВ СИНОВИ КЎЧАТЗОРИДА ЎРГАНИЛГАН НАВ ВА ЛИНИЯЛАРНИ ДОНИНИНГ ТЕХНОЛОГИК СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Science and innovation, 1(D7), 604-607.
13. Butayev, R., & Yusupov, N. (2022). YUPQA QOBIQNING MAGNITOELASTIK TEBRANISHI. Science and innovation, 1(A4), 63-67.
14. Yusupov, N. O. (2021). THE CONTEMPLATION OF HOMER OR THE SUBJECTIVE COGNITIVE ASPECTS OF THE PROBLEM.(VA ZHUKOVSKY AND ART.). ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 398-405.
15. Zhukovsky, V. A., & Yusupov, N. O. (2021). AWARENESS ABOUT THE HOMER OR THE SUBJECTIVE AND COGNITIVE ASPECTS OF THE PROBLEM. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 33-40.
16. Yusupov, N. O., Yusupova, N. O., & Eshmamatov, M. M. (2021). Games in teaching foreign languages and methods of conducting at the initial stage in secondary school. Science and Education, 2(Special Issue 2), 185-189.